TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.3/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MURTALIBOVA MALIKA MIRMAKSUDOVNA

TURKIYANING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SIYOSATI (SURIYA VA IROQ MISOLIDA)

23.00.04 – "Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari"

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 327(560+53)
KBK: 66.4 (5 Turk) (533)
M - 96

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по политическим наукам

Content of Dissertation Abstract the Doctor of philosophy (PhD) in political Sciences

Murtalibova Malika Mirmaksudovna
Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash siyosati
(Suriya va Iroq misolida) 3

Мурталибова Малика Мирмаксудовна
Региональная политика безопасности Турции
(на примере Сирии и Ирака) 25

Murtalibova Malika Mirmaksudovna
Turkey’s Regional Security Policy
(Based on Syria and Iraq) 45

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ 49

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.3/29.12.2022.Ss.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

MURTALIBOVA MALIKA MIRMAKSUDOVNA

TURKIYANING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH SIYOSATI (SURIYA VA IROQ MISOLIDA)

23.00.04 – "Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining siyosiy muammolari"

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ss413 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Madaminova Durdona Iskandarovna** siyosiy fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o‘g‘li** siyosiy fanlar doktori, professor
	G‘oziyev Ravshan Rustamovich Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Xalqaro islomshunoslik akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko‘chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____ dagi ___-raqamli reystr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

O.I. Alimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E.S. Sultonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning beqarorlashuvi sharoitida sodir bo‘layotgan notinchlik va turli mintaqalarda yuz berayotgan nizolar, tashqi siyosatni uzoqni ko‘zlagan holda olib borishni, mamlakat xavsizligini ta’minlash va an’anaviy hamkorlar bilan aloqalar ko‘lamini yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda. Yaqin Sharq mamlakatlarida hukm surayotgan notinchlik, beqaror ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va yuz berayotgan to‘qnashuvlarning dunyoga xavfsizlik tizimiga raxna solayotgani, bu borada aniq bir yechim, ilmiy yondashuv va uni hal etuvchi mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda.

XXI asr boshlarida arab dunyosidagi siyosiy o‘zgarishlar tufayli Yaqin Sharq mintaqasining siyosiy barqarorligiga ta’sir qiluvchi yangi tahdidlar vujudga keldi. Yaqin Sharq xavfsizligi mintaqaviy geografiyasidan chiqib, global darajada dunyo xavfsizlik muvozanatiga o‘z ta’sirini o‘tkazayotganligi, bu borada tadqiqot olib boruvchi aqliy markazlar faoliyatida ilmiy izlanishlarga jiddiy e’tibor qaratilayotgani bilan ko‘zga tashlanmoqda. Hozirda dunyoning yetakchi mamlakatlarida mintaqaviy xavfsizlik masalasini turli nazariy yondashuvlar asosida kompleks tarzda tadqiq etish hamda metodologik yo‘nalishlarni ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu jihatdan, Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligini ta’minlash, mintaqada yuz berayotgan beqaror vaziyat va uni hal etish borasidagi sa’y-harakatlarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro maydonda turli manfaatlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgani, jahon siyosati va iqtisodiyotida muammolar keskinlashib, dunyoning umumiy manzarasini o‘zgartirish tarafdorlari tobora ortib borayotgani, hozirgi global taraqqiyotga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday murakkab umumbashariy jarayonlarni tahlil etishda turli ilmiy mezon va usullar asosida kompleks yondashuvlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Zero, so‘nggi yillarda jahon hamjamiyati taraqqiyotida ham siyosiy-iqtisodiy, ham ijtimoiy-ma’naviy jarayonlar o‘zaro chuqur integratsiyalashuv va dinamik yangilanish jarayoni bilan tavsiflanmoqda. Shu bois, ushbu o‘zgarishlarni har tomonlama tahlil qilish va baholash ularning ko‘p qirrali xususiyatlarini keng qamrab olish hamda ularning mohiyatiga muayyan darajada oydinlik kiritish imkonini beradi[1].

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi (2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (2022-yil 28-fevral, PF-60-son), “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019-yil 15-noyabr, PF-5876-son), “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas’uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2018-yil 5-aprel, PF-540-son) farmonlari, “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – B. 377.

(2018-yil 28-noyabr, PQ-4038-son), “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2020-yil 16-aprel, PQ-4680-son) qarorlari, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirish dasturi «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda xalqaro munosabatlarda xavfsizlik tizimi va uni ta’minlash borasida, shuningdek, Turkiya tashqi siyosati va unda Yaqin Sharq xavfsizligini ta’minlashga doir masalalarda dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda dastur va loyihalar faoliyat ko‘rsatmoqda. Mintaqaviy xavfsizlikga doir ilmiy-tadqiqot markazlari tomonidan ishlab chiqilgan konseptual va strategik g‘oyalar tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi[2].

Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligini ta’minlashda Turkiyaning o‘rni va roli masalasi mahalliy olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Shundan kelib chiqib, dissertatsiya ishi bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlarga ajratib, tahlil qilish mumkin.

Birinchi guruh xavfsizlik borasidagi tadqiqotlar xususan, xavfsizlik tushunchasining paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari, xavfsizlikning milliy, mintaqaviy va global darajalari, xalqaro munosabatlarda xavfsizlikga doir yondashuvlar, g‘arb va sharq xavfsizlik modellari borasidagi ilmiy ishlar B.Buzan, O.Vyeaver, K.Valtz, R.Kaohane, J.Dye. Vilde, M.Mc Donald, V.Olivera, K.Boaz, P.J. Byukenen, L.Hansen, P.Villiams, S.Smit, J.B. Nelson, B.Patrik, R.Kox, I.Vallershtein[3] va boshqalarning tadqiqotlaridan foydalangan holda tadqiq etildi.

Ikkinchi guruhda MDH davlatlari olimlarining Turkiya tashqi siyosati, asosiy yo‘nalishlari, xavfsizlik tizimi borasidagi tashqi siyosiy yondashuvlari borasidagi ilmiy izlanishlari qamrab olingan bo‘lib, bunda V.A. Avatkov, D.R. Urmanov, N.A. Baranov, A.V. Kortunov, I.V. Rijov, A.G. Baklanov, P.A. Sigankov, A.S. Bodjang, A.I. Kondratov, I. V. Rijov, Ye.A. Safonkina, A.V. Suleymanov, K.B. Kanat, M. Yu. Borodina, A. V. Serikov, A.S. Bistrova, A.B. Daugavet, A.V. Duka, D.B. Malisheva, N. V. Kolesnik, A.V. Nevskiy, D.B. Tev, M.A. Sizal, A.M. Krivenko, M.T. Laumulin, A.K. Mamitov[4] kabi mutaxassislarning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan.

---

[2] Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.4. Т.: Ўзбекистон, 2020. – 456 б; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг – иши ҳам улуғ, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 508 б; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. 20.09.2023. https://president.uz/oz/lists/view/6677

[3] Ушбу тадқиқотлар диссертасиянинг “Фойдаланилган адабиётлар рўйхати” қисмида келтирилган

[4] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

Uchinchi guruhni mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tashkil etib, bunda Sh.A. Yovqochev, M. Muhammadsidiqov, S. G‘afurov, D.I. Madaminova, F.E. Karimov, X. Y. Azimov, N. A. Abdullayev, Z. Munavvarov, A.Abdisattorov, S.F. Ubaydullayeva, S.Safoyev, S.Jo‘rayev, S.Saidolimov, R.Alimov, F.Tolipov, G. Ismatullayeva, S. Bo‘ronov, O.Sirojov, R.Z. Jumayev, S.Mavlyanova, B.G‘iyosov, X.Umarov[5] singari olimlarning ilmiy ishlarini ham qayd etish lozim.

To‘rtinchi guruhda turk olimlarining tadqiqotlari qamrab olingan bo‘lib, ularning jumlasiga I. Kalin, M. E. O‘zturk, A. Baliji, M. Sezal, X. Rafeyeq, T.Oguzlu, A.Davutoglu, E. Ersen, M. Aydin, M. Altunshek, M.B.Altunisik[6] kabi olimlarning ilmiy ishlarini kiritish mumkin.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlarni e’tirof etgan holda ta’kidlash joizki, mazkur mavzuni yoritgan har bir tadqiqotchi muammoni, avvalo, o‘z mamlakatining milliy manfaatlari nuqtai nazaridan o‘rgangan. Tadqiqotlar doirasida Turkiya tashqi siyosati, uning Kurd muammosini yechishdagi sa’y harakatlari borasida nazariy va amaliy yo‘nalishda muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, mazkur olimlarning ishlarida aynan Yaqin Sharq mintaqasi, xususan Iroq va Suriya misolida xavfsizlikni ta’minlash borasidagi Turkiyaning o‘rni va roli masalalari atroflicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining 10-raqamli “Sharq mamlakatlarida kechayotgan ijtimoiy siyosiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularning xalqaro munosabatlarga ta’siri” mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Turkiyaning Yaqin Sharqda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda Suriya va Irok muammosini hal etish borasidagi tashqi siyosiy sa’y-harakatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mintaqaviy va global xavfsizlikni tadqiq etishning nazariy masalalarini o‘rganish va tahlil qilish;

Yaqin Sharq mintaqasi strategik ahamiyati, geosiyosati va zamonaviy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb muammolari va uni ta’minlash borasidagi yondashuvlar tahlilini amala oshirish;

Turkiya Respublikasi xavfsizlik strategiyasining konseptual asoslarini ochib berish;

Turkiyaning Yaqin Sharq mintqasi xavfsizligini ta’minlash borasidagi ustuvor yo‘nalishlarini tadqiq etish;

Turkiyaninig Suriya va Iroq bilan xavfsizlik sohasida munosabatlarini tahlil qilish;

Turkiyaninig Suriya va Iroq xavfsizligini ta’minlashda g‘arb davlatlari bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorligi, asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

Turkiyaning Suriya va Iroq muammosini hal etishidagi zamonaviy chaqiriq va tahdidlarni aniqlash;

Turkiyaning mintaqaviy xavfsizlik siyosatini takomillashtirishda harbiy salohiyat, yangi strategik yondashuvlar va istiqbollarini ochib berish;

O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarida mintaqaviy xavfsizlik masalalarini ko‘rib chiqishdan iborat.

---

[5] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

[6] Ushbu tadqiqotlar dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan

Tadqiqotning obyekti sifatida Turkiyaning Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash siyosati belgilab olingan.

Tadqiqotning predmetini Turkiyaning Suriya va Iroq mamlakatlaridagi xavfsizlikni ta’minlashga doir harbiy-siyosiy harakatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, SWOT, kontent va ivent-tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligini ta’minlashdagi Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy resurslarini uyg‘unlashtirgan holda majmuaviy multimodal xavfsizlik yondashuvlari, xalqaro xavfsizlik nazariyalari bilan uyg‘unlashgan va o‘ziga xos xavfsizlik strategiyasini qamrab olgan “Chegara tashqarisidagi xavfsizlik” va “Terrorsiz Turkiya” konsepsiyalari doirasida amalga oshirilayotgani ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Yaqin Sharq xavfsizligiga ta’sir qiluvchi transmilliy xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish zarurati yuzasidan hamda ularni boshqarishdagi strategik funksional vazifalarini ilmiy-tajribaviy tahlil etish natijasida Turkiyaning amalga oshirayotgan innovatsion tahdidlarni bartaraf etish paradigmasi dalillandi.

Turkiyaning madaniy diplomatiyasi va “yumshoq kuch” salohiyati mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasida strategik resurs sifatida qayta konseptualizatsiya qilinishi natijasida uning integratsion samaradorligini hisobga olgan holda, harbiy harakatlarni diplomatik vositalar bilan uyg‘unlashtirish mexanizmini ifodalovchi “preventiv xavfsizlik diplomatiyasi”ni tashkil etish taklif qilindi.

O‘zbekiston va Turkiyaning strategik hamkorlik munosabatlarida mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashning institutsional-rejaviy mexanizmlarini harbiy-siyosiy, iqtisodiy-energetik va madaniy-gumanitar o‘lchamlarda uyg‘unlashtiruvchi “o‘zaro moslashgan yaxlit xavfsizlik platformasi” nazariy-konseptual jihatdan ilk bor o‘rganildi hamda uning amaliy qo‘llash imkoniyatlari yuzasidan O‘zbekiston tashqi siyosatida Turkiyaning vositachilik salohiyatini maqsadli integratsiya qilishni nazarda tutuvchi innovatsion paradigma ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotda xavfsizlik tushunchasining fanlararo asosda talqin qilinishi, an’anaviy yondashuvlardan farqli o‘laroq, kompleks, fanlararo yondashuv asosida tizimlashtirilgani bilan ajralib turadi. Kopengagen maktabining *“sekyuritizatsiya”*, Uyels maktabining *“emansipatsiya”* va Parij maktabining *“texnokratik-diffuziv”* yondashuvlari orqali xavfsizlik fenomenining turli nazariy modellar orqali yoritilishi, mavzuning nazariy asosini boyitishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, xavfsizlikka tahdid soluvchi real omillar va ularni boshqarish mexanizmlarining chuqur tahlili, ushbu mavzuni zamonaviy xalqaro munosabatlar doirasida dolzarb muammolardan biri sifatida ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qilgan.

Mintaqada davom etayotgan harbiy va siyosiy ziddiyatlar, terrorizm, qurollanish, etnik va diniy mojarolar xalqaro xavfsizlik uchun jiddiy tahdid hisoblanadi. Ayniqsa, Isroil-Falastin va Iroq mojarosi, Suriya inqirozi, Turkiya-Yunoniston-Kipr o‘rtasidagi energiya resurslari uchun kurash kabilar buning yaqqol misolidir. Shuningdek, Sharqiy O‘rtayer dengizidagi katta gaz zahiralari mintaqa davlatlari va tashqi kuchlar (AQSh,

Rossiya, Yevropa Ittifoqi) uchun strategik manfaatlar markaziga aylangan. Mavjud resurslardan samarali foydalanish va ularni eksport qilish yo‘nalishlari (masalan, Turkiya orqali Yevropaga) geosiyosiy raqobatni kuchaytirmoqda.

Turkiyaning mintaqadagi faoliyati va energetika diplomatiyasini tadqiq etish orqali kelgusi tadqiqotchilar uchun strategik harakatlar va siyosiy qarorlarning natijalarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar hamda takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e’lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo‘llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o‘tkazishda foydali bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta’lim muasasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta’lim muassasalarining o‘quv kurslari va dasturlarida “Konfliktologiya”, “Siyosatshunoslik”, “Geosiyosat”, “Jahon siyosati” fanlarini o‘qitishda hamda tegishli yo‘nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yaqin Sharq mintaqasida xavfsizlikni ta’minlashda Turkiyaning o‘rni va rolini tadqiq etish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Yaqin Sharq mintaqasi xavfsizligini ta’minlashdagi Turkiyaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy resurslarini uyg‘unlashtirgan holda majmuaviy multimodal xavfsizlik yondashuvlari, xalqaro xavfsizlik nazariyalari bilan uyg‘unlashgan va o‘ziga xos xavfsizlik strategiyasini qamrab olgan “Chegara tashqarisidagi xavfsizlik” va “Terrorsiz Turkiya” konsepsiyalari doirasida amalga oshirayotgani borasidagi ilmiy-nazariy xulosalaridan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi davlat muassasasi ish faoliyati va ko‘rsatuvlar tayyorlashda foydalanilgan. (*O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 07-sentyabrdagi 15-33/745-son ma’lumotnomasi*). Natijada teleko‘rsatuvlar orqali teletomoshabinlarga ayni paytda mintaqada yuz berayotgan mazkur geosiyosiy jarayonlar haqida tahliliy ma’lumot ulashsishga erishildi.

Turkiyaning madaniy diplomatiyasi va “yumshoq kuch” salohiyati mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasida strategik resurs sifatida qayta konseptualizatsiya qilinishi natijasida uning integratsion samaradorligini hisobga olgan holda, harbiy harakatlarni diplomatik vositalar bilan uyg‘unlashtirish mexanizmini ifodalovchi “preventiv xavfsizlik diplomatiyasi”ni tashkil etish kabi nazariy takliflaridan O‘zbekistonda Shanhay hamkorlik tashkilotining xalq diplomaiyasi markazi ish faoliyati va axborot tahliliy hujjatlar tayyorlashda foydalanilgan. (*O‘zbekistonda Shanhay hamkorlik tashkilotining xalq diplomaiyasi markazining 2025-yil 28-avgustdagi 477/25-son*

ma'lumotnomasi). Natijada, markaz faoliyati samaradorligini oshirishda dissertatsiya ishidagi ma'lumotlar muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilgan.

O'zbekiston va Turkiyaning strategik hamkorlik munosabatlarida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional-rejaviy mexanizmlarini harbiy-siyosiy, iqtisodiy-energetik va madaniy-gumanitar o'lchamlarda uyg'unlashtiruvchi "o'zaro moslashgan yaxlit xavfsizlik platformasi" nazariy-konseptual jihatdan ilk bor o'rganildi hamda uning amaliy qo'llash imkoniyatlari yuzasidan O'zbekiston tashqi siyosatida Turkiyaning vositachilik salohiyatini maqsadli integratsiya qilishni nazarda tutuvchi innovatsion paradigma ishlab chiqish lozimligi borasidagi nazariy-konseptual xulosalaridan Markaziy Osiyo xalqaro instituti ish faoliyatini tashkil etish va axborot tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan. (*Markaziy Osiyo xalqaro institutining 2025-yil 18-iyuldagi 01/04-450-son ma'lumotnomasi*). Natijada mazkur takliflar sohaning me'yoriy-huquqiy va axborot-tahliliy bazasini takomillashtirish va ularni amaliy qo'llashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ilmiy ishni yozish doirasida keng qamrovli materiallar ishlab chiqildi, maqolalar va tahliliy materiallar konferensiyalarda dissertatsiya natijalari sifatida aprobatsiyadan o'tkazildi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 4 ta xalqaro darajadagi va 2 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 174 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog'liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan. Tadqiqning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e'lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **"Xavfsizlik tushunchasini tadqiq etishning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida xavfsizlik tushunchasi, global, mintaqaviy va milliy xavfsizlik borasidagi nazariy yondashuvlar tahlil etilgan.

Birinchi paragrafda xavfsizlik tushunchasi, jumladan milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka oid tushuncha va konsepsiyalar realizm, liberalizm va neoliberalizm maktablari hamda Kopengagen, Ueyels, Parij kabi maktablar nuqtai

nazaridan tadqiq etilgan bo‘lib, unga doir zamonaviy integratsion va fanlararo yondashuvlar ishlab chiqilgan, shuningdek, xavfsizlik tushunchasiga doir g‘arb va sharq olimlarining qarashlari o‘rganilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafida Yaqin Sharq mintaqasining strategik ahamiyati, geosiyosiy va zamonaviy xavfsizlikni ta’minlashning dolzarb muammolari, unda yetakchi davlatlarning tutgan o‘rni va ahamiyati tizimli ravishda tahlil etilgan. Shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha jahonda yetakchi davlatlar va tahlil markazlarining tajribasi va o‘ziga xos yondashuvlari tadqiq etilgan va shu asosda tahliliy xulosalar chiqarilgan.

Muammoning nazariy asosini xavfsizlikka oid tadqiqotlar tashkil etar ekan, bunda xavfsizlik nazariyalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelayotgan maktablarning ilmiy asoslangan g‘oyalarini o‘rganish muhim sanaladi.

Realistik paradigma namoyandalari xavfsizlik kategoriyasini birinchi navbatda kuch amaliyoti bilan chambarchas bog‘laydilar. Ularning nazariyasiga ko‘ra, xavfsizlikning asosiy o‘zagini aynan harbiy va strategik qudrat tashkil etadi.

Liberalistik nazariyaning shakllanishi Birinchi jahon urushi oqibatlaridan saboq chiqarish hamda kelgusida shunga o‘xshash fojealarning oldini olish maqsadida amalga oshirilgan konseptual va institutsional sa’y-harakatlar natijasida yuzaga keldi. Liberalizm xalqaro munosabatlardagi nazariy maktab sifatida asosiy e’tiborni nizolar va harbiy qarama-qarshiliklarga emas, balki tinchlik, hamkorlik va o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamlashga qaratadi. Liberalistlar nuqtai nazaridan, xavfsizlikning asosiy mazmuni harbiy kuchda emas, balki davlatlar o‘rtasidagi samarali muloqot va hamkorlikda mujassamlashadi[7].

Bundan tashqari, zamonaviy xalqaro munosabatlarda xavfsizlikni tadqiq etishning yangi nazariyalarini o‘rganish va ularning konsepsiyalariga tayangan holda uch asosiy maktab vakillarining qarashlarini ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq.

Kopengagen xavfsizlik maktabi. Bugungi kunda Kopengagen xavfsizlik tadqiqotlari maktabi tomonidan tinchlik va xavfsizlikga oid ko‘p tarmoqli tadqiqotlar qo‘llab-quvvatlanib kelmoqda. Kopengagen xavfsizlik maktabi xavfsizlik va mudofaa masalalariga doir yangicha qarashlarning shakllanishiga xizmat qilgan holda, xavfsizlikka oid an’anaviy paradigmani real va konstruktiv yondashuvga aylantira oldi[8].

Kopengagen xavfsizlik maktabi ilmi-fan ravnaqiga qo‘shgan munosib hissasi “sekyuritizatsiya” va “de-sekyuritizatsiya” nazariyalarini shakllantirganligi bilan belgilanadi. Ole Veyver mazkur nazariyaning asosiy tarafdorlaridan biridir. Bundan tashqari, B. Buzan, Uiver VaDe Uayldlarning qalamiga mansub bo‘lgan “Xavfsizlik: yangi asos tahlili”[9] nomli asarda ham mazkur nazariyaga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Kopengagen xavfsizlik maktabi dastlab, o‘z tadqiqotlari doirasida xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va bu borada mudofaa masalasiga alohida e’tibor qaratishni lozim topganlar. Ular davlatlar o‘rtasida yuzaga keluvchi harbiy to‘qnashuvlar va ularga

---

[7] Azimov H. Suriya inqirozining Turkiydagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va xavfsizlikka ta’siri. Monografiya. – T.: “Best-publish”., 2024. – B. 11.

[8] B. Buzan, O. Weaver, J. de Wilde. Security: New Framework for Analysis. – London: Lynne Rienner, 1998.

[9] B. Buzan, O. Weaver, and De Wilde 1998 Security – A New Framework For Analysis. https://www.researchgate.net/publication/274649174_Security_A_New_Framework_for_Analysis

qarshi kurash borasidagi davlat imkoniyatlarini va tahdidlar ko‘lamini o‘rganishga ko‘proq e’tibor qaratgan.

Bir so‘z bilan aytganda, sekyuritizatsiya nazariyasi xavfsizlikka tahdidlarni to‘laqonli anglash imkonini bermaydi. Mavjud tanqidlarga qaramay, aynan Kopengagen maktabi xavfsizlik tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash hamda uni fanlararo yondashuv asosida universal tarzda talqin qilish imkonini berdi, desak xato bo‘lmaydi.

Uyels xavfsizlik maktabi. Avvalo Uyels xavfsizlik maktabi feminizm, postpozitivizm va Uyels tafakkur maktabining o‘zaro birlashuvi natijasida vujudga kelganligini ta’kidlash joiz. Maktabning xavfsizlik nazariyasiga qo‘shgan munosib hissasi, uning fanga *“emansipatsiya realizmi”* tushunchasini olib kirgani bilan belgilanadi. Uning asosiy namoyandalari orasida Ken But, Richard Vayn Jons va Endryu Linkleyterlarni uchratish mumkin. Ular shaxsning erkinligiga to‘sqinlik qiluvchi omillarni ijtimoiy transformatsiya asosida o‘rgangan holda, ijtimoiy nazariyani kengaytirishga uringanlar. Olimlarning fikricha, “xavfsizlik - bu emansipatsiya” va “emansipatsiya - bu xavfsizlik”dir[10]. Zero, mavjud qarashlarga ko‘ra, kishilar xavfsiz bo‘lgandagina, emansipatsiya cheklovlaridan ham ozod bo‘lishlari mumkin.

Uyels xavfsizlik maktabi talqiniga ko‘ra, xavfsizlikga oid muammolarni bartaraf etishda shaxs, jamiyat va davlatlarning ishtiroki birdek ta’minlanishi va bu borada ayollarning o‘rniga ham alohida e’tibor qaratilishi talab etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, xavfsizlik masalalarini umummilliy manfaat sifatida kun tartibiga qo‘yish orqaligina uni samarali boshqarish mumkinligi e’tirof etiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, Uyels maktabining emansipatsiyaga asoslangan xavfsizlik nazariyasi yuzasidan ham bir qator tanqidiy fikrlar ilgari surilgan. Unga ko‘ra, mazkur nazariya noaniqliklarga boyligi, xavfsizlik va emansipatsiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash mushkul ekanligi hamda uning afzallik jihatlari yuzasidan asoslarning yetarli emasligi bayon etiladi.

Parij xavfsizlik maktabi. Mazkur maktab vakillari tomonidan konseptual va operatsion vositalarga tayangan holda, xalqaro munosabatlar, sotsiologiya va kriminologiya kabi fan sohalaridan iborat bo‘lgan fanlararo yondashuv asosida xavfsizlik masalalarini tadqiq etish ko‘zda tutilgan. Uning ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri, Dide Bigo va J. Gyuysmanslar tomonidan asos solingan Parij xavfsizlik tadqiqotlari maktabi haqida so‘z borar ekan, bunda sekyuritizatsiya masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz hisoblanadi.

Kopengagen xavfsizlik maktabining bosh g‘oyasi “sekyuritizatsiya” va “de-sekyuritizatsiya” nazariyasidan iborat bo‘lsa, “emansipatsiya” nazariyasi Uyels xavfsizlik maktabining markaziy qismidan joy egallagan. Parij ontologik xavfsizlik maktabi tomonidan esa, xavfsizlik masalalarini o‘rganishda “ko‘p tarmoqli” yondashuvga tayanilgan.

Bu borada ular Kopengagen xavfsizlik maktabining “sekyuritizatsiya” nazariyasini qo‘llab-quvvatlaganlar. Uyels va Kopengagen xavfsizlik maktablarining

---

[10] Эмансипация - зулм, қарамлик ва хурофотдан халос бўлиш. Аёллар эмансипатсияси - жамоат жойлари, меҳнат муносабатлари ва оилавий ҳаётда аёллар тенг ҳуқуқлилигининг таъминлаш; эркак ва аёлларнинг тенг ҳуқуқлиликка интилиши.

qarashlaridan bir qator farqli jihatlar kuzatilgan bo‘lsada, ular xavfsizlik muammolari bilan bog‘liq tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish yuzasidan yagona to‘xtamga kelgan edilar. Zero, an’anaviy realistik yondashuvga ko‘ra, zamonaviy xavfsizlik muammolarini, ularning ko‘p qirrali ekanligi nuqtai nazaridan o‘rganish kutilgan natijani bermaydi.

Milliy va mintaqaviy xavfsizlik masalalari zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim elementlari hisoblanadi. Xavfsizlikni ta’minlashdan ko‘zlangan maqsad, avvalo davlat va uning hududini mavjul tahdid va xatarlardan himoya qilish, barqarorlikni ta’minlash, milliy manfaatlarni himoya qilish hamda aholi farovonligini ta’minlashdan iborat. Ammo, bu borada terrorizm, davlatlararo nizolar va kiberhujum kabilardan iborat tahdidlar to‘siq bo‘lib xizmat qilishi tabiiy. Shunga ko‘ra, bugungi kunda davlatlar oldida qonun ustuvorligini ta’minlash, huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish, harbiy salohiyatni oshirib borish hamda diplomatik vositalarga tayangan holda, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi ustuvor vazifalarning qo‘yilishi muhim sanaladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan Kopengagen, Uyels va Parij kabi xavfsizlik maktablari o‘ziga xos tarzda fan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

Qayd etilgan xavfsizlik maktablarining har biri, xavfsizlikka oid tadqiqotlarning ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan bo‘lsada, muayyan kamchilikdan holi emas. Shunday bo‘lsada, mazkur qarashlar milliy, mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarini tadqiq etishda beqiyos ahamiyatga ega ekanini ta’kidlash joiz. Binobarin, xavfsizlikni ta’minlash doimiy va murakkab jarayon sanalib, u doimiy asosda ilmiy izlanishlar olib borish, tahlillar o‘tkazish hamda zaruriy va tezkor chora-tadbirlar ko‘rishni taqozo etadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Turkiya Respublikasining Yaqin Sharq mintaqasi, xususan Suriya va Iroq davlatlari xavsizligini ta’minlash borasida neorealizm yondashuvlariga ko‘proq murojaat qilayotganini kuzatish mumkin. Xususan, mavjud holat mamlakatning milliy xavfsizligi, birligi va chegaralar daxlsizligini ta’minlash yuzasidan ilgari surilgan “chegara tashqarisidagi xavfsizlik” dasturlari doirasida ham o‘z isbotini topadi.

Shu bilan bir qatorda, Turkiyanging Suriya va Iroq hududidagi kurdlarning PKK va YPG harakatlarini bevosita milliy xavfsizlik tahdidi sifatida sekuritizatsiya qilishi hamda ularga nisbatan olib borgan harbiy amaliyotlari aynan uning oqibati asosida amalga oshirilganini alohida ta’kidlash joiz. Shuningdek, suriyalik qochoqlar oqimining Turkiya tomonidan geosiyosiy va ijtimoiy xavfsizlik tahdidi sifatida taqdim etilishi va shu kabi boshqa holatlar “Kopengagen maktabi” nuqtai nazari bilan o‘zaro ga uyg‘un ekanini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari Turkiya Iroq shimolidagi PKK infratuzilmasini yo‘q qilishni “maksimal xavfsizlik talabi” sifatida asoslab, mavjud amaliyotlarni muntazam davom ettirib keladi. Ushbu amaliyotlarning barchasi “terrorizmga qarshi kurash” narrativi bilan sekuritizatsiya qilinshi orqali xalqaro maydonda legitimlashtiriladi. Turkiya mazkur harakatlarni mamlakat milliy xavfsizligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri xavf sifatida talqin etishi uning chegara tashqarisida harbiy amaliyotlarni o‘tkazishiga turtki bo‘ladi.

Turkiyaning Suriya va Iroqda amalga oshirgan harbiy operatsiyalari terrorizmga qarshi kurash va tinch aholini IShID zulmidan qutqarishga qaratilgan bo‘lib, bunda “emansipatsiya” elementlari ko‘zga tashlanadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad

qochoqlar oqimini kamaytirish, mahalliy aholi turmush tarzini qayta tiklash va mamlakat chegaralarini barqarorlashtirishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan holatlar Yaqin Sharq mintaqasidagi geosiyosiy vaziyatning mavjud holatini to‘laqonli o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Bunda asosiy e’tibor, mintaqa davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan milliy va jamoaviy manfaatlar, hamkorlik aloqalarining kuchli va kuchsiz tomonlari hamda ularning rivojlanish istiqbollarini o‘rganishga qaratilgan.

Zero, Turkiyaning mavjud geosiyosiy xususiyatlaridan kelib chiqib, mudofaa va xavfsizlik strategiyasining hayotga tatbiq etilishi, yirik sarf-harajatlarni talab etadi, bu esa oxir-oqibatda davlatning muhim manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Turkiyaning Yaqin Sharq xavfsizligni ta’minlash siyosatida Suriya va Iroq yo‘nalishi”** deb nomlangan ikkinchi bobi Turkiyaning Yaqin Sharq xavsizligini ta’minlash siyosatida Suriya va Iroq yo‘nalishi uning evolyutsion rivojlanish bosqichlari, konseptual asoslari, tashqi siyosatda xavfsizlik yo‘nalishlari, xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatlari hamda muammolarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi paragrafida zamonaviy Turkiyaning Yaqin Sharq mintqasi xavfsizligi doirasidagi ustuvor yo‘nalishlarilari tadqiq etilib, bu borada uning dastlab g‘arbga yo‘naltirilganligi, sovuq urush yakunidan so‘ng esa mustaqil va ko‘p vektorli tashqi siyosat olib borganligini ochib berilgan. Xususan, Turkiya Yaqin Sharqda o‘z strategik ta’sirini kengaytirib, tashabbuskor va dinamik siyosat olib borayotgan mintaqaviy qudratli davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu borada Turkiya harbiy qudratini mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlikni ta’minlash va mintaqaviy yetakchilikka erishishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan. Kelgusida mavjud siyosat ichki siyosiy barqarorlik, xalqaro bosimlarga chidamlilik va mintaqaviy muammolarni diplomatik yo‘llar bilan hal etishga bog‘liq bo‘ladi.

Turkiya tashqi siyosatining Adolat va Taraqqiyot Partiyasi (AKP) hukmronligi davrida tubdan o‘zgargani, xususan “strategik chuqurlik” konsepsiyasi asosida shakllangan paradigma mintaqaviy siyosatdagi faol transformatsiyaning ifodasidir. “Qo‘shnilar bilan muammo” va “Barqaror xavfsizlik belbog‘ini yaratish” tamoyillari asosida, Ankara o‘zini Yaqin Sharqda yetakchi sifatida qayta pozitsiyalashga intildi. Turkiya faqatgina an’anaviy geosiyosiy manfaatlar emas, balki diniy-mafkuraviy komponentlar orqali ham o‘z ta’sirini kuchaytirishga harakat qilmoqda. Yangi davrda mamlakat tomonidan ishlab chiqilgan “Terrorsiz Turkiya” yaratish tashabbusi nafaqat davlat ichki va tashqi xavfsizligi, qolaversa mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash uchun xizmat qilmoqda. Buning natijasida Turkiya xalqaro maydonda yumshoq kuch bilan harakat qiluvchi vositachidan, bosqichma-bosqich harbiy va iqtisodiy vositalarni uyg‘unlashtirgan kompleks geostrategik aktorga aylanishi ko‘zga tashlanmoqda.

Bu yondashuv, albatta, Yaqin Sharqdagi turli markaziy kuchlar, xususan Saudiya Arabistoni, BAA va Misr bilan raqobat va geosiyosiy ziddiyatlarga sabab bo‘ldi. Jumladan, “Arab bahori”dan keyingi davrda Turkiya - Qatar ittifoqining shakllanishi, bu davlatlar tomonidan “Musulmon birodarlar” harakatining qo‘llab-quvvatlanishi, Fors ko‘rfazi blokining reaksion choralarini keltirib chiqardi. Bu jarayonlar Turkiyaning geosiyosiy transformatsiyasida “neo-usmoniylik” konsepsiyasi orqali

mintaqaviyo gegemonlikka intilish harakatini mustahkamlagan holda, uning tashqi siyosatida normativ yondashuvlar va georealizmning sintezini ko‘rsatmoqda.

Turkiyaning Yaqin Sharqda olib borayotgan faol siyosati hozircha samarali ko‘rinmoqda. Ammo u doimiy ravishda o‘zgarib borayotgan global kuchlar muvozanatiga, mintaqadagi keskinliklarga va iqtisodiy omillarga moslashishga majbur bo‘ladi. Shu bois, Turkiya uchun eng asosiy strategik yondashuvlar moslashuvchanlik, xavfsizlik va manfaatlarini ilgari surish deb aytish mumkin. Umuman olganda, bugungi kunda prezident Erdog‘an olib borayotgan siyosatdan shuni ko‘rish mumkinki, Turkiya ko‘p vektorli tashqi siyosati orqali mintaqada o‘z tasir doirasini kengaytira oladi. Biroq, bu borada tashqi kuchlar hamda ichki siyosatda ham barqarorlikka alohida e’tibor qaratishi lozim.

Turkiyaning Yaqin Sharq siyosatidagi o‘ziga xos jihatlaridan biri bu – tashqi siyosiy strategiyaning iqtisodiy diplomatiya va “yumshoq kuch” vositalari bilan uyg‘unlashtirilganidir. TIKA, Qizil Yarim Oy jamiyati, “Mehr-shafqat” kemalari orqali ko‘rsatilgan gumanitar yordam, masjidlar qurilishi, islomofobiyaga qarshi tashabbuslar va musulmon jamoalari bilan ishlashdagi faollik Turkiyaning xalqaro ijtimoiy-kredit resursini sezilarli darajada oshirdi.

Shu bilan birga, Turkiya o‘z tashqi siyosatini diniy-mafkuraviy motivlar bilan boyitgan holda, Yaqin Sharqdagi ijtimoiy va siyosiy omillarga sezgir yondashuvni shakllantirdi. Bu strategiya ayniqsa Iroq va Suriya inqirozlarida yaqqol namoyon bo‘ldi. Ushbu ko‘p yo‘nalishli diplomatik mexanizm Turkiyani yangi turdagi “normativ kuch” sifatida taqdim etmoqda. Biroq, bu strategiyaning natijalari doim ham ijobiy bo‘lmay, ayrim hollarda Anqara bilan ko‘plab arab davlatlari o‘rtasida qarama-qarshiliklarni kuchaytirdi. Ayniqsa, Turkiyaning “Musulmon birodarlar”ni qo‘llab-quvvatlashi, Fors ko‘rfazi monarxiyalari tomonidan tahdid sifatida qabul qilindi va mintaqaviy miqyosdagi siyosiy keskinlikni yanada chuqurlashtirdi. Shu tariqa, Turkiyaning tashqi siyosati nafaqat iqtisodiy manfaatlarga, balki tarixiy-madaniy merosni tiklash va islomiy identitet orqali yetakchilik da’vosiga ham tayanmoqda.

So‘nggi yillarda Turkiya tashqi siyosatida kuzatilayotgan harbiylashtirish tendensiyasi, ayniqsa Suriya, Liviya va Iroqdagi operatsiyalar, Anqara geosiyosatining yangi bosqichga o‘tganini anglatadi. Ushbu yondashuv “neo-usmoniylik” konsepsiyasini faqat yumshoq kuch vositalari bilan emas, balki aniq harbiy ishtirok orqali amalga oshirishga urinayotganining dalilidir.

Ayni paytda Turkiya, NATO a’zosi bo‘lishiga qaramay, mintaqaviy xavfsizlik mehanizmlarida mustaqil pozitsiyaga ega bo‘lishga intilmoqda. Bunga Anqaraning Iroqda Kurd ishchi partiyasiga (PKK) qarshi o‘tkazayotgan amaliyotlari, Suriya shimolida turk harbiy bazalari tashkil qilinishi, va hatto Liviya siyosiy jarayonlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy ishtiroki misol bo‘la oladi. Mazkur harakatlar Turkiyaning faqatgina yumshoq emas, balki “qattiq kuch” strategiyasiga ham tayanayotganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda, Eron, Saudiya Arabistoni va Isroil bilan bo‘lgan murakkab munosabatlar, mintaqadagi harbiy-siyosiy kuch balansini murakkablashtirdi. Turkiya va Eron o‘rtasidagi raqobat, ayniqsa Suriya va Iroqdagi jarayonlarda parallel harakatlar orqali ifodalanmoqda. Shuningdek, Turkiyaning vositachilik da’volari, xususan Eronga nisbatan AQSH va G‘arb bilan muzokaralarda o‘ynagan roli ham o‘zaro ishonch

darajasini belgilovchi omilga aylangan. Natijada, Turkiya mintaqada xavfsizlik ta'minotchisidan ko'ra, xavfsizlik dinamikasining shakllanuvchi aktoriga aylangan.

Turkiya Yaqin Sharqda o'z strategik ta'sirini kengaytirib, tashabbuskor va dinamik siyosat olib borayotgan mintaqaviy qudratli davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu borada, harbiy qudratini mustahkamlash, iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, xavfsizlikni ta'minlash va mintaqaviy liderlikka erishishni asosiy maqsad qilib qo'ygan. Kelgusida esa bu siyosat ichki siyosiy barqarorlik, xalqaro bosimlarga qarshi turish va mintaqaviy muammolarni diplomatik yo'l bilan hal etish darajasiga bog'liq bo'ladi.

"Turkiyaning Suriya va Iroq xavfsizligini ta'minlash siyosatida muammo va istiqbollar" deb nomlangan uchinchi bobida Turkiyaning Suriya va Iroq muammosini hal etish borasidagi tashqi siyosiy sa'y-harakatlari, xavfsizlik sohasida qo'shni davlatlar bilan munosabatlarninig o'ziga xosligi qo'llanilish usullari va mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Turkiyaninig g'arb davlatlari bilan xavfsizlik soxasidagi hamkorlik masalalari yoritilgan.

Turkiyaning Yaqin Sharqdagi zamonaviy xavfsizlik strategiyasining shakllanishi ichki o'zgarishlar majmuasi va tashqi siyosiy tahdidlarning kuchayishi natijasi bo'ldi. Arab bahori, Suriyadagi mojaroning kuchayishi va radikal islomiy guruhlar, jumladan ISHID faollashuvi kabi voqealar Turkiyani o'zining an'anaviy tashqi siyosat yo'nalishini qayta ko'rib chiqishga va yanada qat'iy va avtonom xatti-harakat yo'nalishiga o'tishga majbur qildi.

O'zgargan mintaqaviy vaziyatga javoban Turkiya o'zining milliy mudofaa salohiyatini rivojlantirish, madaniy-gumanitar vositalar orqali ta'sirini kengaytirish va energetik mustaqilligini mustahkamlashga e'tibor qaratmoqda. Neousmoniylik konsepsiyasi va yumshoq kuchdan faol foydalanish uning mintaqaviy rahbariyatini shakllantirishda muhim elementlarga aylandi. Shu bilan birga, iqtisodiy beqarorlik va siyosiy qarama-qarshilik kabi muhim ichki muammolar ushbu tashqi siyosat maqsadlarini amalga oshirishni sekinlashtirishi mumkin. Umuman olganda, Turkiyaning mintaqadagi xavfsizligi harbiy, diplomatik va madaniy mexanizmlarni birlashtirgan moslashuvchan va ko'p komponentli yondashuvga asoslangan. Ushbu yondashuvning kelajagi ko'p jihatdan mamlakatning ichki muammolarga moslashish va geosiyosiy landshaftdagi tashqi o'zgarishlarga samarali javob berish qobiliyati bilan belgilanadi.

Turkiyaning milliy va mintaqaviy xavfsizlik siyosati geosiyosiy omillar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning harbiy salohiyati davlat manfaatlarini himoya qilishning asosiy kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Mamlakatning Yaqin Sharq, Kavkaz va Bolqon kabi beqaror mintaqalarga yaqin joylashuvi Turkiyani keng ko'lamli xavf-xatarlar bilan yuzma-yuz qilmoqda. Shu sababli, milliy xavfsizlik konsepsiyasi doirasida harbiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy resurslarning integratsiyalashuvi muhim o'rin tutadi. NATO, Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro institutlarda faol ishtirok etish orqali Turkiya o'zining kollektiv xavfsizlikdagi rolini mustahkamlashga intilmoqda. Biroq, xavfsizlik paradigmasining kengayishi Turkiyani nafaqat klassik harbiy tahdidlarga, balki noan'anaviy xavflar – terrorizm, radikalizm, migratsiya va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kompleks siyosat yuritishga majbur qilmoqda. Bu esa

Turkiyaning xalqaro munosabatlarda ham harbiy, ham diplomatik vositalar uyg‘unligidan foydalanishini talab etmoqda.

Turkiyaning mudofaa sanoati so‘nggi yigirma yil ichida sezilarli rivojlanish bosqichini bosib o‘tdi va mamlakat harbiy-texnologik jihatdan sezilarli darajada mustaqillashishga erishdi. Milliy harbiy-sanoat kompleksidagi ichki komponent ulushining 25 foizdan 80 foizgacha o‘sishi Turkiyaning strategik siyosiy qarorlar qabul qilishda tashqi qaramlikdan asta-sekin chiqayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, uchuvchisiz uchish apparatlari, harbiy kemasozlik va raketa sanoatidagi yutuqlar Turkiyani global qurol bozorida sezilarli o‘ringa olib chiqdi. Biroq, mudofaa sohasida erishilgan mustaqillik hali to‘liq emas, chunki ayrim texnologiyalar bo‘yicha NATO davlatlariga hamon tayanish saqlanib qolmoqda. Xalqaro munosabatlar nuqtai nazaridan, bu holat Turkiyani “yarim avtonom harbiy kuch” sifatida talqin etish imkonini beradi. Shu tariqa, mamlakatning texnologik mustaqillashuv jarayoni uning geosiyosiy subyekt sifatida o‘z pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Turkiyaning tashqi harbiy bazalar strategiyasi va xalqaro xavfsizlikdagi roli uni mintaqaviy hamda global miqyosda faol aktorga aylantirdi. Iroq, Suriya, Qatardagi bazalar hamda BMT tinchlikparvar missiyalaridagi ishtiroki Turkiyaga transmilliy xavflarga qarshi bevosita choralar ko‘rish imkonini bermoqda. Bu strategiya nafaqat milliy xavfsizlikni ta’minlash, balki mintaqaviy barqarorlikka ta’sir o‘tkazish, shuningdek, yumshoq kuch elementlarini harbiy vositalar bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan. Turkiya bu orqali o‘zining nafaqat “NATO fronti”dagi bazaviy rolini, balki mustaqil xavfsizlik siyosati yurita oluvchi davlat maqomini ham namoyon etmoqda. Shu bilan birga, “Katta Yaqin Sharq” siyosiy loyihasida va Yevropa xavfsizligini ta’minlashda Turkiyaning strategik ahamiyati ortmoqda. Siyosatshunoslik nuqtai nazaridan, bu jarayon Turkiyaning o‘zini xalqaro tizimda “mintaqaviy qudrat markazi” sifatida tasdiqlashga qaratilganligini anglatadi.

